

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

(“*Hayrat ul-abror*” asari misolida)

Usmonova Xusnida Xamidjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti o’zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

+998770195054 usmonovahusnida626@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xamidov Mirolimbek Mansurovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiga mansub bo’lgan “Xamsa” asarining birinchi dostoni hisoblangan “Hayrat ul-abror”da keltirilgan umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: G‘azal,doston,odob-axloq,ishq,sahovat,vafo.

Аннотация: В данной статье рассматривается отражение общечеловеческих ценностей в «Хайрат уль-Аброр», который считается первым эпосом «Хамса» Алишера Навои.

Ключевые слова: газель, эпос, нравы, любовь, щедрость, верность.

Abstract: This article discusses the reflection of universal human values in "Hayrat ul-Abror", which is considered the first epic of "Khamsa" by Alisher Navoi.

Keywords: ghazal, epic, manners, love, generosity, loyalty.

G‘azal mulkining sultonini bo‘lmish Alisher Navoiy haqida so‘z boshlar ekanmiz dastavval uning hayot yo‘li haqida aytib o‘tishimiz lozim.Biz Navoiyni mutaffakir olim va bundan tashqari yirik davlat arbobi sifatida ham yaxshi bilamiz.

“Navoiyning xalq uchun qilgan xizmatlari ham bizga ayon. Navoiy so‘z sehrgari va donishmand olim bo‘lish bilan birga el-ulus obodonchiligi, tinchligi uchun yonib yashagan yirik davlat arbobi ham edi. Uning rahnamoligida Hirot va Astrobod shaharlari chiroy ochib, jafokash xalqadolat shabadalaridan bahramand bo‘ldi.”[1,333]

U asosan o‘zining ko‘plab asarlarida umuminsoniy qadriyatlar ayniqsa inson qadri uning odobi haqida yozib yaxshi kishilar fazilatlarini ham yaqol tarzida ochib bera olgan.Ayniqsa insonga kerakli bo‘lgan eng muhim sifatlar ibo,vafo va hayo haqida ko‘plab g‘azallarida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

“Hayrat ul-abror” dostonining lug‘aviy ma‘nosi “Yaxshi kishilarning hayratlanishi”.U “Xamsa” asarining birinchi dostoni hisoblanadi.Oltmishto‘rt maqolatdan tashkil topgan doston o‘z ichiga asosan Navoiyning dunyo haqidagi qarashlarini o‘z ichiga oladi.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida odob va odobli kishilar haqida ko‘plab misralarni keltirib o‘tgan:

Aysh,Navoiy,necha dilkashdurur,

Lek adab birla hayo xushdurur.

Hayovu adab birla tuzgil maosh,

Yana ayla ta’zimu hurmatni fosh!

Ne el yori bo’lsang,alar rangi bo’l,

Nechuk borsang,tutqil ul sori yo’l.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida odob va odobli insonlar haqida ko‘p bora yozgan.Ushbu g‘azalda ham odob va hayo inson uchun eng zarur bo‘lgan hislatlar ekanini ta‘kidlaydi va insonlarni hurmat qilish kerak ekanligini,ular bilan bir xil mavqeyda bo‘lishni,kibr-u havoga berilmasligini ham aytib o’tadi.

“Hayrat ul-abror” dostonidagi birinchi maqolat ya’ni imon haqida Navoiy imonning 6 sharti haqida ham yozadi va shunday deydi:

“Kimdaki mana shu olti narsaga e‘tiqod bor ekan,men ham shunday odamlardan ta‘lim oldim .U har qancha nomasiyah bo’lsin,g‘arqayi daryoyi gunoh bo’lsa ham,Allohim afviga muyassar bo’lsa,ne ajab?”[2,21]

Ya’ni Navoiy mana shu imon shartlariga ega bo‘lgan insonni Alloh hidoyat qilishi haqida aytib o‘tmoxda.Bu imon shartlarini bajargan insonlar esa Navoiy nazlida u ta‘lim olgan insonlardan kabi hisoblanmoqda.

Oltinchi maqolatda “odob haqida” yozadi:

“Elga mol-u dunyo,sharaf-shon obro‘ bo‘lmay,hayo bilan odobgina sharaf hisoblanadi.Chunki yog‘inning boshlanishi hayo bo‘lganidek,yog‘inning har qatrasini tuproqni kimyoga aylantiradi.”[2,38]

Navoiy shon-shuhratni yoki insonning mansabi hech qanday sharaf hisoblanmasligini aytadi ,chunki shon-shuhrat va sharaf yoki mansab bir umrlik bo‘lib insonga berilmaydi,bir kun kelib inson olmadan o‘tganda ham uning yaxshi nomi uning ortidan qoladi va insonlar uni odobi yuzasidan ham eslashadi.

Navoiy bu maqolatda inson hayosini yog‘ingarchilikka ya’ni yomg’irga o‘xshatmoqda va u oddiy tuproqni ham kimyoga aylantirishi haqida yozmoqda.

Navoiy aynan shu maqolatning ichida er-xotin munosabati va ayolga ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan ehtirom va mehr tuyg‘ulari,farzandga qoldirish kerak bo‘lgan chiroyli ism va qarindoshlarga siylayi rahm ko‘rsatish kerak ekanligini ham yozgan.

Beshinchi maqolatda esa karam,olijjanoblik,saxovat haqida yozilgan:

“Saxovat har qancha maqtashga arzirli bo’lsa ham,isrof tarzida ko’p sarflama,aql bekorga isrof etishni baxillik bilan teng tutadi.”[2.35]

Isrof qilish bilan behuda sarf-xarajat teng ekanligini Navoiy o’z dostonida bayon qilmoqda.Insonlarga shu yo‘l bilan faqat zarur bo’lgan masalalardagina sarf qilish va saxovat qilish kerak ekanligini eslatmoqda.

Sakizzinchi maqolat “Vafo” to‘g‘risida yozilgan bo’lib unda vafosiz insonlar ziyo ya‘ni yorug‘lik taratmaydigan shamning o’zginasi ekanligi haqida aytib o‘tilgan va faqat vafosi bor kishilarnigina yor deyish maqomiga mansub ekanliklari tasvirlangan.Undan keyin ikki vafoliq yor xususida hikoyat yozilib shu bayt keltirilgan:

Ey Navoiy,Xudo senga shunday yor bersa,

Sen ham unga boshing bilan joningni fido qilgin.[2.49]

Alisher Navoiy bu misralar bilan vafo inson uchun eng go‘zal tuyg‘ulardan va vafoli insonlar uchun hatto jonni fido qilish ham arzirli ekanini yozib o‘tgan.

Bundan tashqari 64 maqolat :rotgo‘ylik,yolg‘onchilik,jahl, aqli va oqil kishilar xususida ham yozilgan bo‘lib Navoiy ularga o’z munosabatini ham bildirib o‘tgan.

Alisher Navojy bundan necha aslar burub bugungi kundagi muammolar va kishilar tabiatidagi kechinmalarni o’zining dostoni orqali ochib bera olgan va tan olishimiz kerak “Hayrat ul-abror” dostonida keltirilgan ayrim kamchilik va illatlar bugungi kunimizning ham dolzarb muammolarining biriga aylanib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Gulchehra Xo‘janova. Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar talqini. T.: Fan,2023.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. 1-jild. Hayrat ul-abror. – T.: Yoshlar matbuoti,2023.